Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash.....	1177
Mavlanov G'olibjon Muhammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City.....	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога.....	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari.....	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari.....	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan.....	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан.....	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўгли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish.....	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollari ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi" ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili.....	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
"Xufiyona iqtisodiyot" ning jamiyatga ta'siri	1397
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari...	1400
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	1407
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna	
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1411
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1417
Umarova Xilola Uktamovna	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1426
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li	



KORXONALAR FAOLIYATIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik hamda kamchilik jihatlari o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari, xorijiy adabiyotlardan foydalangan holda xorij olimlarining marketing tadqiqotlarining korxonalar faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlarga nisbatan induktiv va deduktiv metodlar yordamida mualliflik yondashuvlari keltirilgan. Ushbu tadqiqotdan asosiy maqsad, marketing tadqiqotlarining korxonalar faoliyatiga turlicha ta'siri o'rganilgan ilmiy ishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston sharoitida korxonalarda marketing tadqiqotlaridan foydalanganda qanday ustunlik va kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin ekanligini yoritib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: marketing tadqiqotlari, korxonalar, raqobat, risk, xarajat, imkoniyat, axborot, strategiya.

Abstract: This article examines the advantages and disadvantages of using marketing research. In addition, the author's approaches using inductive and deductive methods to scientific works aimed at studying the positive or negative impact of marketing research on enterprise activity by foreign scientists using foreign literature are presented. The main goal of this study is to clarify the advantages and disadvantages of using marketing research in Uzbekistan, based on scientific works that have studied the various effects of marketing research on enterprise activity.

Key words: marketing research, enterprise, competition, risk, cost, opportunity, information, strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются преимущества и недостатки использования маркетинговых исследований. Кроме того, представлены авторские подходы с использованием индуктивных и дедуктивных методов к научным работам, направленным на изучение положительного или отрицательного влияния маркетинговых исследований на деятельность предприятия, проводимых зарубежными учеными с использованием зарубежной литературы. Основная цель данного исследования – выяснение преимуществ и недостатков использования маркетинговых исследований в Узбекистане на основе научных работ, изучавших различное влияние маркетинговых исследований на деятельность предприятий.

Ключевые слова: маркетинговое исследование, предприятие, конкуренция, риск, стоимость, возможность, информация, стратегия.

KIRISH

Savdo sohasi yurtimizda tezkor ravishda rivojlanayotgan sohlardan biri bo'lib hisoblanadi. Buni quyidagi ma'lumotlar orqali ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonning tovar aylanmasi 2023-yilda 23,8 foizga oshib, 62,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Savdo taqchilligi rekord daraja – 13,7 mlrd dollarga yetdi. Eksportning uchdan bir qismini rekord darajada sotilgan oltin tashkil etdi. Oziq-ovqat, neft va gaz importi keskin oshdi. Oltinni hisobga olmaganda, eksport qiymat jihatidan atigi 4,5 foizga ko'paydi va 16,17 mlrd dollarni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi 22,2 foizdan 16,6 foizga, yetkazib berish hajmi esa 4,38 mlrd dollardan 4,06 mlrd dollargacha qisqardi.¹ Ushbu ma'lumotlarni o'zidan ham kelib chiqib aytish mumkinki O'zbekistonda savdo sohasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali anchagina.

Korxonalararo raqobat kuchayib borayotgan bugungi davrda savdo sohasida axborotga nisbatan talab ham shunga mos ravishda oshib bormoqda. Chunki, xaridor nimani xohlashini oldindan bilishga doir ma'lumot-

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/trade/>

lar tovar savdosini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada esa marketing tadqiqotlaridan foydalanish raqobatda ustunlikka erishishda o'ziga xos ravishda yordam beradi. Marketing tadqiqotlarining samarasi bo'yicha izlanish olib borish barobarida bir qancha ilmiy adabiyotlarda tadqiqotlarni qo'llash bilan bog'liq kamchilik va muammolarga ham duch kelindi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, savdo sohasida marketing tadqiqotlarini qo'llash bo'yicha olimlarda turlicha fikrlar mavjud.

Marketing tadqiqotlari iste'molchilarning xatti-harakati va bozor dinamikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni bera olgani tufayli, biznesda ongli qarorlar qabul qilishning asosi sifatida e'tirof etiladi (Smith & Fletcher, 2019). Darvoqe, tadqiqotlar biznes uchun foydali imkoniyatlarni aniqlash, iste'molchilar talablarini qondirish uchun takliflarini ularga moslashtirish va bozorda raqobatdosh ustunlikka ega bo'lish imkonini berishda ham o'z o'rnini va rolga ega (Jones 2020).

Marketing tadqiqotlariga atalgan maqto'vlar qatorida bir qancha tanqidiy fikrlarga ham duch kelishimiz mumkin. Ulardan birining fikriga ko'ra, marketing tadqiqotlariga tayanish innovatsiyalarni bo'g'ishi va oldin tadqiq qilinmagan hududlarni o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin (Brown & Reingen, 2021). Bundan tashqari, barcha ma'lumotlarning ham to'g'ri emasligi va uslubiy cheklovlar tadqiqot natijalarining to'g'riligi va ishonchliligiga nisbatan shubha uyg'otadi (Kim va Li, 2018).

Ilmiy ishimiz davomida bu kabi qarama-qarshi fikrlarni o'rganar ekanmiz, tadqiqotlarning foydali jihatlari uning salbiy oqibatlariga qarshi turadi. Bibliografik va empirik tahlil orqali savdo sohasida bozor tadqiqotlarning murakkabliklarini ochishga hamda uning salohiyati va cheklovlariga oydinlik kiritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iste'molchilarning xulq-atvorini tushunish va biznes qarorlarini qabul qilish uchun muhim bo'lgan bozor tadqiqotlari bilan bog'liq e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qancha cheklovlar ham mavjud. Muhim muammolardan biri bu subyektivlik masalasidir, bunda respondentlar obyektiv fikrlashdan ko'ra ijtimoiy jihatdan maqbulroq (ko'pchilikning fikriga qarab) javoblarni berishlari mumkin (Jong va boshq., 2010). Bu noto'g'ri ma'lumotlarga va noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligiga ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, an'anaviy bozor tadqiqoti usullari bilan bog'liq xarajatlar, masalan, katta xarajat talab qiluvchi tadqiqot usullaridan foydalanish, ayniqsa keng ko'lamlil tadqiqotlarga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (Shahzad, 2024). Yana bir kamchilik - bu ko'pincha internet-marketing tadqiqotlariga oid bo'lib bu usulda olingan javoblar noaniqligi va umumlashtirish qiyinligi bilan bog'liq (Demetrio va boshq., 2020).

Bundan tashqari, bozorni o'rganishda eskirgan yoki cheklangan metodologiyalarga tayanish, ayniqsa raqamli davrda, iste'molchilar xatti-harakatlarining o'zgaruvchan landshaftiga moslashishga nisbatan to'siq yaratishi mumkin (Gandolfo, 2021). Bundan tashqari, marketing tadqiqotlarida iste'molchilarning shaxsiy hayotiga aralashish va ularning boshqalar uchun maxfiy bo'lgan ma'lumotlarini olishga intilish kabi axloqiy mulohazalar ko'pincha qolib, bu sohadagi tadqiqot amaliyotlarining yaxlitligi va axloqiy me'yorlari borasida tashvish uyg'otadi (Kimmél va Smit, 2001).

Tadbirkorlar iste'molchilar ehtiyojlari va bozor tendensiyalari bo'yicha tushunchaga ega bo'lishlari uchun bozor tadqiqotlaridan foydalanadilar, bu ularga o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini mos ravishda bozorga moslashtirishga imkon beradi (Julyanthry va boshq., 2021). Tadbirkorlikka va bozorga yo'naltirilganlikni korxonalar o'z tadqiqotlariga integratsiyalagan holda, innovatsiyalarni rivojlantirishlari va raqobatdosh ustunlik darajasini oshirishlari mumkin (Julyanthry va boshq., 2021). Ushbu yondashuv qaror qabul qilish va strategik tanlovlar borasida muhim ahamiyat kasb etadi (Fillis, 2000). Tadbirkorlik malakasi, o'rganishga yo'naltirilganlik va barqaror raqobatdosh ustunlikka erishishga oid tadqiqotlar korxonasi siyosatini ishlab chiqish va foyda darajasini oshirish bilan bog'liq modellarni ishlab chiqishda yordam beradi (Sil va Coryanata, 2019). Marketing faoliyati, tadbirkorlik jarayonlari va institutsional nazariyaning o'zaro integratsiyasi tadbirkorlikning boylik yaratishga qanday hissa qo'shishini tushunishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi va yangi bozor imkoniyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi (Webb & Pryor, 2015). Strategik tadbirkorlik istiqbollari, tadbirkorlik yo'nalishini va dinamik qobiliyatlarni marketing tadqiqotlari yordamida aniqlash orqali firma faoliyatini rivojlantirishga erishish mumkin (Kim, 2018).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda bibliografik usuldan faol foydalanilgan bo'lib, bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning marketing tadqiqotlarini savdo korxonalarini faoliyatiga joriy qilish masalalari bo'yicha izlanishlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari ushbu olimlarning qarashlariga nisbatan induktiv va deduktiv usullarni ishlatgan holda mualliflik yondashuvlari keltirib o'tilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'plab maqola va adabiyotlaridan foydalangan holda marketing tadqiqotlarining foyda va zararlarini tahlil qilish orqali ular bir qancha jihatlariga ko'ra foydali yoki zararli bo'lishi mumkin ekan (1-jadval)

1-jadval: Marketing tadqiqotlarining turli xususiyatlarga ko'ra afzallik va kamchiliklari

Xususiyatlari	Marketing tadqiqotlarining foydali jihatlarini	Marketing tadqiqotlarining zararli jihatlarini
Xarajat	Mijozlarning afzal ko'rishi, ehtiyojlari va xatti-harakatlari bo'yicha tushunchaga ega bo'lishda yordam beradi	Vaqt va mablag' jihatdan ko'p xarajat talab qiladi
Vaqt	Bozorda yangi imkoniyatlarni aniqlashda yordam beradi	Tez rivojlanayotgan sohalarda natijalar tez eskirishi mumkin
Aniqlik	Biznes egalariiga asoslangan qarorlar qabul qilish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi	Loyihalash va samarali o'tkazish uchun tajribali kadrlar talab etiladi
Xavfsizlik	Bozor talabini o'rganish orqali mahsulot ishlab chiqarishdagi kamchiliklarning oldini oladi	Ma'lumotlarni yig'ish usullari respondentlar shaxsiy hayotiga dahl qilishi mumkin
Ishonchlilik	Benchmarking strategiyasini qo'llab quvvatlaydi	Ma'lumotlar tahlili turlicha xulosalarga olib kelishi mumkin
Prognoz qilish	Bozor tendensiyalari va o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi	Kelajakdagi bozor konyukturasini aniq prognoz qilishda qiyinchiliklar mavjud

Manba: Muallif ishlanmasi

- **Xarajat.** Iste'molchilar ehtiyojlarini tushungan holda aniq yo'nalishda harakat qilish, keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ortiqcha xarajatlarni oldini oladi, bundan tashqari bugungi kundagi raqamli dunyoda bir qancha arzon turdagi marketing tadqiqot vositalaridan foydalanish imkonini mavjud (misol uchun online tarzdagi so'rovnomalar).

Ammo yuqori sifatli tadqiqotlarni amalga oshirish ham mablag' ham vaqt jihatdan kata hajmli resurslarni talab qilishi mumkin, bundan tashqari tadqiqot davomida oldindan ko'zda tutilmagan xarajatlarni yuzaga kelish holatlari ham kuzatiladi.

- **Vaqt.** Marketing tadqiqotlari o'tkazish bozordagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berish imkonini beribgina qolmasdan balki resurslarni kerakli o'rinlarga taqsimlash orqali vaqt tejashga ham yordam beradi. Bundan tashqari bozorni yetarlicha o'rganish undagi nishalarni aniqlash bozorga tezroq kirib borish imkonini beradi. Xaridorlar xulq-atvorini tahlil qilish orqali servisni yaxshilash sodiq mijozlar sonining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa keyinchalik vaqt jihatdan ham mablag' jihatdan ham ancha resurslarni tejatlashga olib keladi. Chunki mavjud mijozlarni saqlab qolish, yangilarini jalb etishdan ko'ra 5 barobar arzonroqqa tushadi (2018).

Lekin tadqiqotlarni aniq rejalashtirish, ularni amalga oshirishi va tahlil qilish mobaynida ko'p vaqt tala qilinishi mumkin. Shu bilan birgalikda IT yoki raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ayrim sohalarda o'zgarishlar tez kechganligi sababli tadqiqot natijalari tez eskirishga uchrashi mumkin. Bu borada alternativ xarajatlarni ham inobatga olish muhim hisoblanadi, chunki tadqiqotlarga vaqt sarflash o'rniga asosiy e'tiborni shu vaqtni o'zida mahsulotni rivojlantirish kabi boshqa muhim ishlarga ham qaratish mumkin.

- **Aniqlik.** Olingan natijalar asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi, bu esa kompaniya strategiyasiga nisbatan ishonchni yanada ortishiga sabab bo'la oladi. Aniq ma'lumotlar o'z navbatida resurslarni optimal tarzda taqsimlashda ham muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarning ko'pligi tahlil jarayonini murakkablashtirish bilan birga aniq natijalar olishda ham qiyinchiliklar yaratadi. Bundan tashqari yaxshi natijalar olinishi uchun yaxshi kadrlar xizmatidan foydalanish zarur, agar bunday qilinmasa, ma'lumotlar aniqligi ta'minlanmasligi mumkin.

- **Xavfsizlik.** Korxonada bozor bo'yicha ma'lumotlarni yetarlicha o'rganishi birinchi navbatda uning oldida turgan risklarni aniqlash imkonini beradi bu esa o'z navbatida kelajakda mahsulot ishlab chiqarish va sotishga doir risklarni oldini oladi, bu xavfsizlikni ta'minlagan holda biznesni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Xavfsizlik borasida yana shuni aytish mumkinki, tadqiqotlar orqali riskni turli segment va mahsulotlar orasida taqsimlab chiqish mumkin, bu esa har bir segment va mahsulot liniyalari bilan bog'liq risklarni minimallashtirishda yordam beradi.



Masalaning yana bir jihati shundaki, tadqiqotlar 100 foiz aniq natijalarga olib kelishi kafolatlanmagan. Aniq rejalashtirish amalga oshirilmasa, qilingan xarajatlar o'zini oqlamasligi ham mumkin, shu bilan bir qatorda tadqiqot davomida mijozlarning fikrini o'rganish uchun ularning shaxsiy hayotiga aralashishga to'g'ri keladi, bu esa ayrim olimlarning fikricha iste'molchi hayotiga dahl qilish hisoblanadi.

- **Ishonchlilik.** Marketing tadqiqotlari yordamida raqobatchilar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish imkoniga ega bo'lish mumkin bu esa benchmarking strategiyasini qo'llab quvvatlaydi, biroq katta hajmli ma'lumotlar va ularning chuqur tahlili ba'zida turlicha natijalarga olib kelishi ham mumkin.
- **Prognoz qilish.** Marketing tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biri kelajakdagi faoliyatni qay tarzda kechishini oldindan aniqlash hisoblanadi, biroq konyuktura dinamikasining ko'p hollarda tez o'zgaruvchanlikka moyilligi ushbu jarayonni ancha murakkablashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizda so'nggi yillarda korxonalar orasida raqobat muhitining murakkablashuvi tufayli marketing tadqiqotlari o'tkazishga nisbatan talab anchagina kuchayganiga qaramasdan bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar anchagina. Savdo korxonalarida tadqiqotlar o'tkazilayotganiga qaramasdan, ayrim holatlarda turli marketing tadqiqot metodlaridan noto'g'ri foydalanish holatlari kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi savdo korxonalarida marketing tadqiqotlarini turli maqsadlarga ko'ra kerakli darajada ishlatishga erishish orqali bir qancha yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi:

- savdo korxonalarida faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish korxonalar faoliyatiga ko'pchilik holatlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi, savdo va foyda hajmlarining oshishiga olib keladi;
- tadqiqotlarning kerakli metod va vositalarini qo'llash orqali mijozlar bilan doimiy muloqot qilish imkoniga erishiladi bu esa iste'molchilar uchun eng optimal servis va tovarni taqdim etishda yordam beradi;
- tadqiqot o'tkazishdan oldin vaziyat va maqsadlarni har taraflama tahlil qilish moliyaviy risklarni oldini oladi;
- tadqiqotlarning foydali hamda zararli taraflari bo'yicha to'liq tushunchalarga ega bo'lish ulardan qanday vaziyatlarda samarali ravishda foydalanish mumkin yoki yo'qligi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith, A., & Fletcher, R. (2019). The Role of Market Research in Business. *Journal of Business Research*, 45(2), 211-225.
2. Jones, C., et al. (2020). Uncovering Consumer Behavior: Insights from Market Research. *Marketing Science Quarterly*, 18(3), 345-361.
3. Brown, D., & Reingen, P. (2021). Beyond the Numbers: Exploring the Limitations of Market Research. *Journal of Marketing Research*, 28(1), 56-72.
4. Kim, Y., & Lee, S. (2018). Methodological Challenges in Market Research: Addressing Bias and Validity. *Journal of Consumer Behavior*, 12(4), 489-502.
5. Martijn de Jong, Rik Pieters, Jean-Paul Fox(2010) Reducing Social Desirability Bias through Item Randomized Response: An Application to Measure Underreported Desires *Journal of Marketing Research*
6. Shahzad, M.F., Yuan, J., Arif, F. and Waheed, A. (2024), "RETRACTED: Inside out. Social media videos and destination branding. Neuromarketing using EEG technique", *Journal of Islamic Marketing*, Vol. 15 No. 3, pp. 886-918. <https://doi.org/10.1108/JIMA-08-2022-0236>
7. Gandolfo, A. (2021). The drawbacks of the digital transition of marketing research: implications for decision makers and the industry. *International Journal of Marketing Studies*, 13(3), 9. <https://doi.org/10.5539/ijms.v13n3p9>
8. Kimmél, A. and Smith, N. (2001). Deception in marketing research: ethical, methodological, and disciplinary implications. *Psychology and Marketing*, 18(7), 663-689. <https://doi.org/10.1002/mar.1025>
9. Julyanthry, J., Putri, D. E., Lie, D., & Sudirman, A. (2021). Msme competitive advantages reviewed from entrepreneurship insight and market orientation aspects with innovation as a medium. *Jurnal Manajemen Dan Bisnis*, 10(2), 30-40. <https://doi.org/10.34006/jmbi.v10i2.306>
10. Fillis, I. (2000). Being creative at the marketing/entrepreneurship interface: lessons from the art industry. *Journal of Research in Marketing and Entrepreneurship*, 2(2), 125-137. <https://doi.org/10.1108/14715200080001543>
11. Webb, J. and Pryor, C. (2015). The entrepreneurship process., 1-5. <https://doi.org/10.1002/9781118785317.weom030033>
12. <https://www.forbes.com/sites/jiawertz/2018/09/12/dont-spend-5-times-more-attracting-new-customers-nurture-the-existing-ones/?sh=67d31b695a8e>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

